

YOSHLARNING ADABIYOTGA BO‘LGAN QIZIQISHINI OSHIRISHDA BERDAQ ASARLARINING O‘RNI

Utebaeva Baxargul Umirbay qizi

ToshPTI 1-Pediatriya va xalq tabobati fakulteti

3-kurs 317-guruh talabasi

Email: bakhargulutebaeva@gmail.com

ANNOTATSIYA: Yoshlarning adabiyotga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirish hamda Berdaq asarlarining bugungi kundagi o‘rni, Qoraqalpoq xalqi adabiyotida Berdaqning dostonlarini o‘rganishning ilmiy va ma’naviy tarbiyaviy ahamiyati haqida fikr muloxaza yuritimiz.

Kalit so‘zlar: xalqparvarlik, adolat, razolat, haqiqat, Axmoq podsho, Xalq uchun, qo‘shiqalar.

АННОТАЦИЯ: речь пойдет о научном и духовно-просветительском значении изучения былин Бердака в литературе каракалпакского народа, повышении интереса молодежи к литературе и о месте произведений Бердака на сегодняшний день.

Ключевые слова: патриотизм, справедливость, радость, правда, Юродивый царь, За народ, песни.

ABSTRACT: we will discuss the scientific and spiritual educational importance of studying Berdak's epics in the literature of the Karakalpak people, increasing the interest of young people in literature and the place of Berdak's works today.

Key words: patriotism, justice, joy, truth, Foolish king, For the people, songs.

Farzandlarimizning yutuqlari, albatta, hammamizni g‘ururlantiradi. Lekin bu bilan cheklanib qolish kerak emas. Yoshlarimizning istagini, ehtiyojini, ertangi kunini ta’minlash uchun yana nimalar qilsak bo‘ladi? Bilim va kasblarni egallashi, salohiyatini yuzaga chiqarish uchun qanday yordam berish kerak? Ana shu savollar meni qiynaydi, - dedi Shavkat Mirziyoyev.¹

Qoraqalpoq xalqining yozuviga asosan XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ega bo‘lgan edi. Shuning uchun ularning adabiyoti tarixi asosan xalq og‘zaki ijodi janrlari bilan bo‘lgan ertak, qo‘shiq va dostonlardan iboratdir. O‘rta Osiyo xalqlari og‘zaki ijodida mashhur bo‘lgan “Oshiq G‘arib”, “Yusuf va Zulayxo”, “Oshiq Xamro”, “Toxir va Zuxro”, “Yusuf Axmad” kabi dostonlar ham qoraqalpoq xalqi orasida keng tarqalgan. Adabiyotimizdagi bu dostonlarning deyarli barchasida vatanparvarlik, xalqparvarlik talqinlari yetakchi o‘rinni egallaydi. Bu g‘oya ayniqsa “Qirq qiz” dostonida ko‘zga yaqqol tashlanadi. Qoraqalpoq xalq og‘zaki ijodida turli mavzudagi qo‘shiqlar ko‘p uchraydi. Shulardan eng ko‘p tarqalgani “jaydari qo‘shiq” deb ataladigan turidir. Bu qo‘shiqlar xalq hayotining turli tomonlarini qamrab olgan bo‘lib, sodda, tushunarli qilib aytilgan. Ayniqsa yoshlar orasida ko‘proq tarqalgan bo‘lib, unda sevgi-muhabbat mavzusi yetakchilik qiladi. Yuqoridagi kabi yuksak shakildagi vatanparvarlik va xalqga xizmat qilish kabi yuksak mavzudagi ijodni qoraqalpoqning buyuk yozuvchisi bo‘lgan Berdaq ijodida xam kuzatish mumkin. Berdaq “Axmoq podsho” nomli dostonida zolim xonlarni qattiq tanqid ostiga olib adolatsiz xonlarni va beklarni qoralaydi. Ahmoq podsho asari orqali Qoraqalpoq xalqining barcha muammolarini va butun dunyodagi insoniylik tushunchalari bo‘lgan vatanparvarlik, adolatlilik, kabi g‘oyalarni ulug‘lanishini o‘zining asari talqinida yoritgan.

Asarda quydagicha mazmun o‘z ifodasini topgan: Ahmoq podsho uzoq vaqt farzand ko‘rmaydi. Keyin uning Gulim ismli xotini qizli bo‘ladi. Podsho esa bundan g‘azablanib, xotini va qizini yo‘q qilishni buyuradi. Dono cho‘ri ayol Zoraning tadbirkorligi tufayli Gulim va Gulzor omon qoladi. Podshoning qizi Gulzor

¹ <https://president.uz/oz/lists/view/5735>

ulg‘aygach, otasini borib ko‘radi. Axmoq podsho esa o‘z qiziga oshiq bo‘lib qoladi. Qizi podsho taklifini rad etgach, uni itlarga talatib o‘ldirishni buyuradi. Eng vahshiy itlar ham qizga yaqinlashmaydi. Aksincha, itlar tilga kirib, podshoni qarg‘aydi. Gulzor uzoq vaqt podsho ko‘zidan yashirinish maqsadida o‘rmonga chiqib yashay boshlaydi. Keyin esa kelib Axmoq podshoni o‘ldiradi.

Berdaqning she‘riy asarida mazmunidan ham ko‘rinib turibdiki, xalq boshiga kelayotgan kulfatlarga Axmoq podsholarga o‘xshash zolim va benomus hukmdorlar sababchi ekanligi xatto o‘z qilmishidan afsuslanmaydigan zolimlar xorlikda o‘lishi bilan yakunlanadi. Qoraqalpoq xalq adabiyoti kechroq yozma adabiyotga ega bo‘lgan bo‘lsada, unda xalq hayotini haqqoniy aks ettiruvchi bir qancha asarlar yaratildi. Bu yaratilishda yuksak darajada etirof etiluvchi Berdaq kata axamiyat kasb etadi. Qoraqalpoqlarning adabiyoti paydo bo‘lishi va shakllanishida xalq og‘zaki ijodining roli katta bo‘lsa uni yozilishida Berdaq ham o‘z munosib xissasini qo‘shgan adib sanaladi. Ko‘pgina qo‘shiqlar, latifalar, masallar, ertaklar, dostonlar qoraqalpoq xalqi shoirlari tomonidan kuyga solinib ijro etilishida ham Berdaqning o‘rni beqiyosdir. Xalq shoiri ham san‘atkor, ham yozuvchi sifatida mashhur bo‘lgan Berdaq doimo xalq xurmatida bo‘lgan. Qoraqalpoq yozma adabiyotining shakllanishida bevosita o‘zbek adabiyotining o‘rni ham katta bo‘lgan. O‘zbek xalqi bilan yonma-yon yashagan qoraqalpoq xalqi madaniyatining vakillaridan bo‘lgan Berdaq ham Buxoro va Xiva madrasalarida tahsil olgani borgani, ammo iqtisodiy va siyosiy jarayonlar Berdaqni taxsil olishdan to‘sadi.

Bahshichilik jarayonlarini kuyga solib ijod qilgan shoir Berdaq ko‘plab ijod jarayonlarini xalqning yashash sharoiti jarayonlaridan olib yozgan. Berdaq ijodidagi barcha jarayonlarni xalq bilan hamohang tarzda yaratgan shoirni adib sifatida o‘rganamiz. Berdaqning asarlari ham og‘zaki, ham yozma shaklda xalq orasida ommalashib tarqalgan. Kambag‘al xalqning og‘ir turmushi haqida yozgan she‘ri Xalq uchun deb nomlangan va u quydagicha:

Yigit bo‘lsang arslon kabi tug‘ilgan,
Tanbal bo‘lmay xizmat etgil xalq uchun,
Yigit bo‘lsang arslon kabi tug‘ilgan,
O‘zni demay, g‘amxo‘rlik qil xalq uchun.

Berdimurod o‘ylab aytgil, so‘zingni,
Ko‘tarma, lof urib, faqat o‘zingni,
Qizartmagay birov sening yuzingni,
Qo‘ldan kelsa, xizmat ayla xalq uchun.

Yetarsan murodga, gar xizmat etsang,
Eling yo‘llaganda har qayon ketsang,
Har qachon dushmanning boshiga yetsang,
Olqish olib xizmat ayla xalq uchun.

Yigit kishi odam dilin eritar,
Aytgan so‘zin boldan shirinroq aytar,
Bir aytgan so‘zidan qaytmasdan ketar,
Aynimasdan xizmat etar xalq uchun.

Zolimlar tinglamas faqirning zorin,
Ular o‘ylar o‘z foydasin, o‘z korin,
Hech qachon zolimlar qo‘ldagi borin —
El ko‘rmaslar bor bo‘lsa-da, xalq uchun.

Berdimurod haqiqatni izlading,
Mudom elga to‘g‘ri yo‘lni ko‘zlading,
Yovuzlardan qo‘rqmay, haqni so‘zlading,
Jon-taningni berding doim xalq uchun...

Berdimurod, o‘ylab so‘zingni ko‘rgil,
Yurgan so‘qmoqlardan izingni ko‘rgil,
Qayg‘u chekmay g‘ariblarga qo‘l bergil,
Shunda ishing bo‘lur faqir xalq uchun.²

Xalqning dardini o‘zining she‘rlari orqali yozib o‘zining zamonasidagi ochko‘z xonlarni beklarni tanqidiy shaklda qo‘rqmasdan qalam tebratgan. Berdaqning Axmoq podsho dostonida ochko‘z podshoni va yon atrofidagi poraxo‘r amaldorlar, turli tovlamachilarni fosh qilingan. Berdaq xotin-qizlar ozodligi mavzusiga xam daxildorlik ayni shu dostonida she‘riy tarzda yoritilib berilgan. Shu bilan birga bu she‘riy dostonida ko‘p xotinlilik kabi illatlar qattiq tanqid qilinadi.

Xulosamiz shundan iboratki Berdaq yozgan illatlar bugungi zamonamizda ham mavjud va bu illatlarga birgalikda birlashib kurashish lozimligini Berdaq asarlari orqali xalqimizga va yosh avlod vakillari bo‘gan talabalarga ham yetkizish muhim ahamiyatga ega. So‘zimizni yakuni davlatimiz rahbari takidlagan so‘zlar bilan yakunlasak: Vatan ravnaqi, xalq farovonligi uchun mehnat qilgan odam hech qachon kam bo‘lmaydi. Bugun sizlarning olijanob va mardona mehnatingizni xalq munosib baholayapti, davlatimiz qadrlayapti. Hamma sizlarga havas bilan qaraydi, – dedi Prezident Sh.Mirziyoyev³.

FOYDALANILGAN ADADIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Berdaq Saylanma she‘rlar va dostonlar. G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashiriyoti. T.: 1978 Qoraqalpoqchadan Mirtemir tarjimasidan olindi.
2. Nurmuxammedov M. Qoraqalpoq adabiyoti tarixi. T. 1978.
3. Berdaq. Tanlangan asarlar. T. 1978.
4. Kaipberganov T. Gumroxlar. Roman. T., 1978.
5. <http://www.samdu.uz/>
6. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Berdaq>
7. <https://president.uz/oz/lists/view/5475>

² Berdaq Saylanma she‘rlar va dostonlar. G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashiriyoti. T.: 1978 Qoraqalpoqchadan Mirtemir tarjimasidan.

³ <https://president.uz/oz/lists/view/5475>